

O'ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Turizm xizmatlari.
Faol turistik marshrutlarning yagona tasnifi
Umumiy talablar

Rasmiy nashr

O'zbekiston standartlar institute

So‘z boshi

1. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi huzuridagi “Turizmni rivojlantirish ilmiy-tekshirish instituti” davlat muassasasi TOMONIDAN ISHLAB CHIQLDI. STK 4 "Turizm va madaniy meros" standartlashtirish bo'yicha texnik qo‘mita tomonidan TAQDIM ETILDI.

2. O‘zbekiston standartlar institutining 2024-yil 26-apreldagi 10/MSt - sonli buyrug‘i bilan TASDIQLANDI.

3. DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standartni va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish, qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarda chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy chop etish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli

Mundarija

| | | |
|----|--|---|
| 1. | Qo'llanish doirasi | 1 |
| 2. | Standartlarga havolalar | 1 |
| 3. | Atamalar va ta'riflar | 1 |
| 4. | Asosiy qoidalar..... | 2 |
| 5. | Turistik marshrutlarning (yurishlar) tasnifi..... | 3 |
| 6. | Faol turizm turlarini turga doir tasniflash talablari..... | 4 |

O'ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

**Turizm xizmatlari.
Faol turistik marshrutlarning yagona tasnifi.
Umumiy talablar**

**Туристские услуги.
Единая классификация активных туристических маршрутов.
Общие требования**

**Tourism services.
Unified classification of active tourist routes.
General requirements**

Amalga kiritish sanasi: 26.06.2024 y.

1 Qo'llanish doirasi

Ushbu standart faol turistik marshrutlarni tasniflash tizimiga va aniqlovchi to'siqlarga, ularni shakllantirish va taqdim etish jarayonlariga qo'yiladigan umumiy talablarni belgilaydi.

Ushbu standart tashkiliy-huquqiy shakli va mulkchilik shaklidan qat'i nazar yuridik shaxslar tomonidan, hamda faol turizm turlarida turistik-ekskursiya xizmatlarini ko'rsatadigan yakka tartibdagi tadbirkorlar va/yoki o'zini-o'zi band qilgan shaxslar sifatida jismoniy shaxslar tomonidan foydalanish uchun mo'ljallangan.

2 Standartlarga havolalar

Mazkur standartda quyidagi standartlarga me'yoriy havolalardan foydalanilgan:

ГОСТ 32611-2014 Turizm xizmatlari. Turistlar xavfsizligini ta'minlashga qo'yiladigan talablar. (rasmiiy manba: ГОСТ 32611-2014 Туристские услуги. Требования по обеспечению безопасности туристов).

O'z DSt ISO 21101:2022 (ISO 21101:2014, IDT) Sarguzasht turizmi. Xavfsizlikni boshqarish tizimlari. Talablar.

3 Atamalar va ta'riflar

Ushbu milliy standartda quyidagi atamalar va ularning ta'riflari qo'llanilgan:

3.1 faol turistik marshrutlarning (yurishlar) yagona tasnifi (FTMYaT): Faol turizmning barcha turlari bo'yicha turistik marshrutlar va aniqlovchi to'siqlarni tasniflashning asosiy tamoyillari, talablari va texnologiyasi.

3.2 turistik marshrut (turizmning faol turlari uchun): Muayyan murakkablik darajasi yoki toifasiga ega bo'lgan va ГОСТ 32611 bo'yicha xavfsizlik talablariga muvofiq ishlab chiqilgan, marshrut.

3.3 toifalangan turistik marshrutlar (yurishlar): Bosib o'tish uchun maxsus tayyorgarlik va texnik ko'nikmalar, shuningdek, maxsus jihozlar talab qilinadigan, marshrutlar. Toifalangan turistik marshrutlar oltita murakkablik toifasiga ega va ular, asosan, sport marshrutlari toifasiga kiradi.

3.4 toifaga ega bo'lmagan (TB) turistik marshrutlar (yurishlar): Bosib o'tish uchun maxsus texnik ko'nikmalar va maxsus jihozlar talab qilinmaydigan, marshrutlar. Toifaga ega bo'lmagan turistik marshrutlar uchta murakkablik darajasiga ega.

3.5 marshrutning murakkablik toifasi (MT): Marshrutning, undagi tosiqlarning xarakteri, soni va xilma-xilligiga bog'liq bo'lgan, davomiyligi, uzunligi va texnik murakkabligi.

3.6 to'siqlarning qiyinlik toifasi (QT): Turistik marshrutdagi (yurish) to'siqlarning texnik murakkabligi (dovonlar, traverslar, cho'qqilar, ostonalar, kanyonlar, g'orlar va boshqalar).

3.7 aniqlovchi to'siqlar (AT): O'ziga xos qiyinlik toifasiga ega bo'lgan mahalliy va cho'zilgan tabiiy to'siqlar.

3.8 aniqlovchi omillar (AO): Qiyinlik toifasiga ega bo'lmagan, ammo marshrutning murakkablik toifasini sezilarli darajada aniqlaydigan, omillar (hududning geografik ko'rsatkichlari, marshrutning avtonomligi, marshrutda guruh tomonidan erishilgan balandliklarning umumiy farqi, marshrutning keskinligi va boshqalar).

3.9 mahalliy to'siqlar (MT): Kichik masofaga ega bo'lgan va ularni yengib o'tishda turistlardan tegishli darajadagi texnik mahorat va maxsus jihozlardan foydalanishni talab qiladigan, to'siqlar.

Izoh – Tog', suv va g'or marshrutlarni toifalashda, birinchi navbatda, MT – dovonlar, tizmalarning traverslari, cho'qqilar, g'orlar, ostonalar va boshqalar hisobga olinadi.

3.10 cho'zilgan to'siqlar (ChT): Katta uzunlikka ega bo'lgan va ularni yengib o'tishda turistlardan katta jismoniy kuchni talab qiladigan to'siqlar.

Izoh – Piyoda, velosipedda, avto-moto marshrutlarda keng tarqalgan.

3.11 travers: Travers, "travers bo'ylab harakatlanish". Travers bo'ylab harakatlanish – bu gorizontal tekislikdagi, sezilarli ko'tarilish yoki balandlikda pasayishsiz harakat, masalan, tog' tizmasi bo'ylab qiyalikda harakatlanish.

3.12 etalon marshrut: U yoki bu murakkablik toifasiga tasniflash uchun zarur bo'lgan, aniqlovchi to'siqlar (AT) va aniqlovchi omillarning (AO) minimal to'plamiga ega turistik marshrut.

Izoh – Turistik hududlarning etalon marshrutlari hududda turli xil aniqlovchi omillar (AO) mavjudligiga qarab turli xil miqdordagi aniqlovchi to'siqlarga (AT) ega bo'lishi mumkin.

3.13 etalon marshrutlar ro'yxati (EMR): Turizmning faol turlari bo'yicha tasniflangan turistik marshrutlar;

3.14 kombinasiyalangan turistik marshrut (yurish): Har xil faol turizm turlariga xos bo'limlardan tashkil topgan turistik marshrut (yurish).

3.15 marshrut-malaka komissiyasi (MMK): Turistik marshrutni (turistik yurish) rejalashtirish va bosib o'tish hamda yo'riqchi-yo'l boshlovchilar malakasining natijalarini chiqarish (turistik tajriba hisoblari) bosqichida turistik yurishni ekspert baholashni amalga oshiradigan turistik-sport jamoat organi yoki ixtisoslashtirilgan jamoat tashkilotlari, komissiya.

4 Asosiy qoidalar

4.1 Turizmning faol turlarini turistlar/ekskursantlar hayoti, sog'lig'i, mol-mulki va atrof-muhit uchun xavfsizligi turoperatorlar va turistik xizmatlar ijrochilari tomonidan FOCT 32611 va O'z DSt ISO 21101 ga muvofiq turistik mahsulotni shakllantirish, ilgari surish va sotishning barcha bosqichlarida ta'minlanishi kerak.

4.2 Turizmning faol turlarida turistik marshrutlarning (yurishlarning) murakkablik toifalari (MT) mavjud. Faol turistik marshrutlarning yagona tasnifi (FTMYaT) faol turistik marshrutlarni (yurishlarni) tasniflashning asosiy tamoyillari, talablari va texnologiyasini belgilaydi.

4.3 Yengib o'tiladigan to'siqlarning qiyinligi, turistik marshrutining (yurishning) hududi, turistik marshrutning cho'zilganligi va faol turizmning u yoki bu turi uchun xos bo'lgan boshqa bir qator ko'rsatkichlariga qarab, turistik marshrutlar toifalangan va toifaga ega bo'lmagan turlarga bo'linadi.

Izoh: Turizmning faol turlariga quyidagilar kiradi: piyoda, suv, tog', chang'i, velosiped, avtomobil, motosikl, g'or, shuningdek ularning kombinasiyalarini ifodalashi mumkin.

4.4 Turistik marshrutlar o'zining murakkabligi bo'yicha ortib boruvchi uchta murakkablik darajasiga – I dan III gacha va oltita murakkablik toifasiga – I dan VI gacha bo'linadi.

4.4.1 Turistik marshrutning murakkablik toifasini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar aniqlovchi to'siqlar (AT) va aniqlovchi omillar (AO) hisoblanadi.

4.4.2 Faol turizmning har bir turi o'ziga xos to'siqlar va o'ziga xosligini aks ettiruvchi omillarga ega.

4.5 Aniqlovchi to'siqlar (AT) qiyinligi bo'yicha 1A, 1B, 2A, 2B, 3A, 3B, shuningdek turizm turiga qarab 1 dan 6 gacha darajaga ega.

4.6 Turistik marshrutlarni tasniflash faol turizm turiga mos ravishda yagona texnologiya va talablarga muvofiq amalga oshiriladi.

4.7 Toifalash ikki usul asosida amalga oshiriladi:

a) Faol turistik marshrutlarning yagona tasnifi (FTMYaT) va toifalashning turga doir metodikasidan foydalanish

b) Faol turistik marshrutlarning yagona tasnifi (FTMYaT) va faol turizm turlari bo'yicha etalon marshrutlar royxatidan (EMR) foydalanish.

Izoh: Ikki usulni bir vaqtning o'zida birlashtirish mumkin. Ko'p variantli tasniflash texnologiyasi turizm turlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi.

4.8 Tasniflanadigan marshrutni etalon marshrutlar royxati (EMR) bilan taqqoslaganda, uning texnik murakkabligi etalon marshrutning parametrlaridan past bo'lmasligi kerak.

4.9 Kombinasionalangan turistik marshrutning har bir uchastkasining cho'zilganligi, har qanday murakkablik toifasidagi kombinasionalangan turistik marshrutni tashkil etuvchi ushbu uchastkalarda joylashgan to'siqlar soni va qiyinlik toifasi kombinasionalangan marshrut tuzilgan, turizmning har bir turi uchun bir xil murakkablik toifasidagi marshrutlarni belgilaydigan, to'siqlarning cho'zilganligi, soni va qiyinlik toifalariga mutanosib ravishda mos kelishi kerak.

4.10 Turistik marshrutning toifasi va murakkablik darajasi amaldagi metodika asosida marshrut turiga va marshrut-malaka komissiyasining xulosasiga qarab belgilanadi.

5 Turistik marshrutlarning (yurishlar) tasnifi

5.1 Cho'zilganligi va davomiyligi bo'yicha toifali marshrutlarga qo'yiladigan talablar nazorat, taxminiy xarakterga ega va yurishning murakkablik toifalarini baholashda hal qiluvchi ahamiyatga ega emas (1-jadval).

5.2 Yurishning me'yoriy davomiyligi, bosib o'tish uchun zarur bo'lgan, minimal vaqt sifatida qabul qilinadi. Ushbu davomiylik marshrutning cho'zilganligi, to'siqlarning soni va qiyinligi oshishi bilan, shuningdek, uni ko'zdan kechirish vaqti va yomon ob-havo sharoitida vaqt zaxirasi hisobiga uzoqroq bo'lishi mumkin (1-jadval).

5.3 Yurishning me'yoriy cho'zilganligi ushbu murakkablik toifasi uchun marshrutning minimal, taxminiy uzunligi sifatida qabul qilinadi. Marshrutdagi aniqlovchi to'siqlar (AT) yoki aniqlovchi omillar (AO) sonining sezilarli darajada oshishi bilan cho'zilganlik qisqartirilishi mumkin (lekin, odatda, 1-jadvalda ko'rsatilganiga nisbatan ko'pi bilan 25 foizga). Kuchli o'nqir-cho'nqir hududlardagi marshrutning cho'zilganligi xaritada 1:100000 masshtabda o'lchanadi va olingan natija 1,2 koeffitsientga ko'paytiriladi.

5.4 Marshrutning asosiy qismi ushbu murakkablik toifasidagi yurish uchun belgilangan kamida 75 % chiziqli yoki aylana (bitta halqa) cho'zilganlikda bo'lishi va marshrutning eng qiyin to'siqlarini o'z ichiga olishi kerak (tog' yurishlari uchun – kamida ikkita eng qiyin dovonlar).

Yurishdagi radius bo'ylab chiqish butun marshrutga nisbatan marshrutning uncha katta bo'lmagan, aynan o'sha nuqtaga qaytib keladigan maydoni hisoblanadi. Aylana radius bo'ylab chiqishlarda (boshqa yo'l bo'ylab qaytiladigan) bosib o'tilgan masofalar va tabiiy to'siqlar to'liq hisobga olinadi, chiziqli radius bo'ylab chiqishlarda (bir xil yo'l bo'ylab qaytiladigan) bosib o'tilganlari esa bir yo'nalishda hisobga olinadi.

5.5 Yurishlarning marshrutlari, odatda, aholi punktida zaruratsiz qolishdan kelib chiqadigan tanaffuslarsiz, uzluksiz bo'lishi kerak.

Marshrut uchastkalari (daryolar, tog' tizmalari va boshqalar) yoki mahalliy to'siqlarni (MT) bog'lash holatlarida, agar bu yurish mantig'i bilan asoslansa, uning yaxlitligini buzmasa va guruh tomonidan mintaqaning yanada o'zlashtirilishiga yordam bersa, ushbu turistik hudud ichida transportdan foydalanishga yo'l qo'yiladi.

Bunday marshrutning murakkablik toifasi (MT), faol turizmning ushbu turi, to'siqlarning ushbu murakkablik toifalari (MT) uchun minimal zarur bo'lgan aniqlovchi to'siqlar (AT) sonidan kelib chiqib, shuningdek, turistik hududning aniqlovchi omillarini (AO) hisobga olgan holda

aniqlanadi, bunda aniqlovchi to'siqlarning (AT) soni, tegishli mintaqa uchun etalon marshrutlar ro'yxatida (EMR) keltirilganiga nisbatan ko'paytirilishi mumkin.

5.6 Agar guruhni chiqaradigan marshrut-malaka komissiyasida (MMK) marshrutning murakkabligini baholashda shubha tug'ilsa, u holda marshrut hujjatlarida yurishning yakuniy toifalanishi hisobot ko'rib chiqilganidan keyin amalga oshirilishi haqida yozuv bilan baholash oralig'i (masalan, III-IV MT) ko'rsatilishi mumkin.

5.7 Birinchi bosib o'tish joylarining uchastkalarini o'z ichiga olgan marshrutlarga chiqarishda, guruh a'zolariga tajriba bo'yicha qo'shimcha talablar qo'yilishi mumkin, marshrutning murakkablik toifasi esa hisobot ko'rib chiqilganidan keyin baholanadi, bunda murakkablik toifasi alohida hollarda bittaga oshirilishi mumkin.

5.8 Marshrutlarning murakkablik toifasini baholashda marshrut-malaka komissiyasi (MMK) aniqlovchi to'siqlar (AT) va aniqlovchi omillar (AO) sonini hisobga olgan holda cho'zilganlik va davomiylikka nisbatan boshqa (1-jadvaldan farq qiladigan) qarorlar qabul qilishi mumkin.

5.9 Murakkablik darajasi bo'yicha marshrutlarning tasniflanishi bolalar-o'smirlar turizmida ham qo'llaniladi. 2-jadvalda, avto-moto turizmdan tashqari, bolalar-o'smirlar turizmi uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan, 1-3-murakkablik darajasidagi marshrutlarga talablar keltirilgan. Bolalar-o'smirlar turizmining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, avto-moto turizm uchun murakkablik darajalari bo'yicha yurishlarning tasnifi mavjud emas.

6 Faol turizm turlarini turga doir tasniflash talablari

6.1 Tog' turizmi

Tog' turistik marshrutining (yurishning) murakkablik toifalarini baholash uni etalon marshrutlar ro'yxati (EMR) bilan taqqoslash yo'li orqali yoki "Tog' marshrutlarini toifalash metodikasi" va "Dovonlarning qiyinligini baholash metodikasi" dan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Tog' turistik marshrutining murakkablik toifasi muayyan qiyinlik toifasidagi (QT) yengib o'tiladigan mahalliy to'siqlarning (dovonlar, cho'qqilar, tizmalar traverslari) to'plami bilan belgilanadi. Dovon nuqtasi suv havzasining eng past nuqtasiga to'g'ri kelmasligi mumkin. Shuningdek, tog' marshrutining murakkabligini aniqlashda kechuv joylarining mavjudligi va ularni yengib o'tish murakkabligi ham hisobga olinadi. Dovonlarning qiyinligini baholash metodikadan foydalaniladi.

Tog' turizmida dovonlar qiyinligining 1A dan 3B gacha bo'lgan 6 ta yarim toifasi qabul qilingan. 1A qiyinlik toifasidan (QT) osonroq dovonlar toifaga ega bo'lmagan (TB) dovonlar deyiladi. Dovonlarning qiyinlik toifasi sharoitlarga qarab (mavsum, qor sharoiti va boshqalar) yarim toifaga o'zgarishi mumkin.

Ikki yoki undan ortiq dovondan ketma-ket o'tilishi, agar bir dovondan vodiya tushish va vodiya keyingi dovonga ko'tarilishning cho'zilganligi bo'yicha muhim qismi tushib qolsa, dovon bog'langan joyi sifatida ko'riladi va bitta dovon sifatida hisobga olinadi. Dovonlarning soni va qiyinlik toifasi 3-jadvalda ko'rsatilganlarga mos kelishi kerak.

Tog' turizm marshrutlari (yurishlar) cho'qqilarga chiqish va tizmalarning traverslarini o'z ichiga olishi mumkin, ular mantiqiy ravishda marshrut chizig'iga mos kelishi kerak. Sport turizmi va alpinizmga tog'li relyefni baholashga yondashuvlardagi farqlar tufayli, dovondan o'tish elementlari bo'lmagan, ko'tarilish yoki traversning murakkablik toifasi tasniflangan cho'qqilar ro'yxati yoki unda bayon etilgan ekspert baholash metodikasi asosida marshrut-malaka komissiyasi (MMK) tomonidan baholanishi kerak. Ko'tarilish yoki traversning qiyinlik toifasi, marshrutning murakkablik toifasini belgilaydigan, dovonning murakkabligidan oshmasligi kerak.

Cho'qqiga/dovonga faqat bitta radius bo'ylab ko'tarilish (aniqlovchi tomonda) mahalliy to'siq (MT) sifatida inobatga olinishi mumkin.

Birinchi bor bosib otilgan dovonlarning murakkablik toifasini aniqlashda 4-jadvalning "Dovonlarning qiyinligini baholash metodikasi" dan foydalanilishi kerak.

6.2 Piyoda yurish turizmi

Turistik marshrutning (yurishning) murakkablik toifalarini baholash uni etalon marshrutlar ro'yxati (EMR) bilan taqqoslash yoki "Piyoda yurish marshrutlarini toifalash metodikasi" dan

foydalangan holda amalga oshiriladi. Metodika piyoda yurish marshrutlarining murakkablik toifasini baholash uchun mo'ljallangan, ularning yo'l chizig'i etalon marshrutlar ro'yxatida keltirilganlardan yoki birinchi bor amalga oshirilgan marshrutlardan farq qiladi.

Metodika marshrutning murakkabligini quyidagi tavsiflar majmui bo'yicha ballarda baholashdan iborat: cho'zilganlik (I), davomiylik (t), mahalliy to'siqlar (MT), cho'zilgan to'siqlar (ChT), yurish hududi, balandliklar avtonomligi, farqi.

6.3 Suv turizmi

Turistik marshrutning (yurishning) murakkablik toifalarini baholash uni etalon marshrutlar ro'yxati (EMR) bilan taqqoslash yoki "Suv marshrutlarini toifalash metodikasi" dan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Suv turistik marshrutining (yurishning) murakkablik toifasi, suzib o'tish murakkabligiga ta'sir qiluvchi, aniqlovchi to'siqlar (AT) va aniqlovchi omillarning (AO) soni va toifasiga bog'liq (avtonomlik, to'siqlar orasida tinch uchastkalarining mavjudligi, yuqori suv bo'yab suzish, sug'urta qilish imkoniyati hamda murakkabligi va boshqalar). Aniqlovchi to'siqlarning (AT) soni yurishni amalga oshirish geografik mintaqasiga va tanlangan muayyan turistik marshrutga (daryolar yoki daryolar ulangan joylari) qarab o'zgaradi.

Eng keng tarqalgan suv marshrutlarining murakkablik toifalari, shuningdek, turli mintaqalar uchun suv marshrutlari aniqlovchi to'siqlarining (AT) qiyinlik toifalari etalon marshrutlar ro'yxatida (EMR) keltirilgan. Etalon marshrutlar ro'yxatida (EMR) har bir mintaq uchun to'siqlarning minimal zarur bo'lgan sonini aniqlaydigan, ba'zi etalon marshrutlar ham keltirilgan. Ushbu mintaqadagi yangi marshrutning murakkablik toifasini, shu jumladan daryolar ulangan joylarini aniqlashda, uning murakkabligini etalon marshrutlar ro'yxatidan (EMR) etalon bilan taqqoslash amalga oshiriladi, bunda aniqlovchi to'siqlarning (AT) soni etalondagidan kam bo'lmasligi kerak. Agar etalon mavjud bo'lmasa, unda mintaqaning ma'lum toifalangan marshrutlari murakkabligi bilan taqqoslash amalga oshiriladi.

Aniqlovchi to'siqlarning (AT) soni va qiyinlik toifasi 5-jadvalda ko'rsatilganlarga mos kelishi kerak.

Yangi marshrutlarni (to'siqlarni) toifalash marshrutlar haqidagi hisobotlar va to'siqlarning pasportlari asosida marshrut-malaka komissiyasi (MMK) tomonidan amalga oshiriladi.

Suv to'sig'ining qiyinlik toifasi, uni xavfsiz kechib o'tish uchun talab etiladigan, malaka va texnik mahorat darajasi, shuningdek, ekipaj a'zosining sog'lig'i va hayoti uchun suvga tushishda duch keladigan xavf darajasi bilan belgilanadi.

To'siqlarning qiyinlik toifasi suv sathiga qarab o'zgarishi mumkin. Mahalliy to'siqning (MT) qiyinlik toifasini aniqlashda suv to'siqlarini toifalash metodikasiga amal qilish tavsiya etiladi.

Marshrutga chiqarishda, guruh a'zolariga muayyan kemalarda suzish tajribasi, rejalashtirilgan marshrutda uchrashi mumkin bo'lgan, turli omillar (masalan, avtonomlik, katta suvda suzish va boshqalar) mavjud bo'lganda suzish tajribasi mavjud bo'lishiga qo'shimcha talablar qo'yilishi mumkin.

Yelkanli turistik marshrutning (yurishning) murakkablik toifasi, quyidagi omillardan kelib chiqqan holda, oldindan aniqlanadi:

1) suv havzasining shamol-to'lqin sharoitlari (aksariyat shamollarning kuchi va yo'nalishi va yurish paytida to'lqinlarning tabiati, marshrut hududidagi suv havzasining kengligi va chuqurligi);

2) hududning geografik va boshqa xususiyatlari (yurish paytida suv va havo haroratining o'rtacha uzoq yillik ko'rsatkichlari, qirg'oqlar tabiati, oqib tushish-oqib chiqish va boshqa oqimlar, chuchuk suvning mavjudligi);

3) hududning turistik o'zlashtirilganligi, kemalar suzishining jadalligi, navigatsiya sharoitlarining murakkabligi; aholi punktlarining mavjudligi.

6.4 Veloturizm

Marshrutning murakkablik toifasini baholash uni etalon marshrutlar ro'yxati (EMR) bilan taqqoslash yoki "Velosiped marshrutini toifalash metodikasi" dan foydalangan holda amalga oshiriladi. Velosiped marshrutining murakkablik toifasi (MT) tegishli qiyinlik toifasidagi (QT) cho'zilgan to'siqlar (ChT) va aniqlovchi omillar (AO) mavjudligi bilan belgilanadi. Marshrutning u

yoki bu murakkablik toifasiga mos kelishining zaruriy sharti 6-jadval talablarini bajarishdir, ya'ni marshrutda jadvalda ko'rsatilganidan kam bo'lmagan to'siqlar bo'lishi kerak.

Mahalliy to'siqlar, yo'llar va so'qmoqlar mavjud bo'lmashligi bilan tavsiflanadigan (kechuv joylari, botqoqliklar, qumlar, qor-muzlik uchastkalar va boshqalar), aniq chegaralarga va qisqa cho'zilganlikka ega, lekin ular velosiped marshrutlarining murakkabligini aniqlovchi hisoblanmaydi, hamda ularning marshrutga kiritilishi faqat bilvosita veloyurishning murakkablik toifasini oshishiga olib kelishi mumkin.

Cho'zilgan to'siqlar (ChT) velosiped marshrutidagi to'siqlarning asosiy turi va uning murakkablik toifasini belgilovchi, asosiy parametri hisoblanadi. Ular sezilarli cho'zilganlik va ularni yengib o'tish uchun energiya sarfini nisbatan bir xil taqsimlash bilan tavsiflanadi.

6.5 Avto-mototurizm

Marshrutning murakkablik toifalarini baholash etalon marshrutlar ro'yxati (EMR) bilan taqqoslash yoki "Avto-motomarsrutlarni toifalash metodikasi" dan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Avto-mototurizmning asosiy xususiyati – marshrutning toifali qismini boshiga yetib borish va orqaga o'z yo'li bilan qaytish imkoniyatidir. Bu umumiy foydalanishdagi yo'llarda harakatlanish va marshrutning katta umumiy cho'zilganligini keltirib chiqaradi. Cho'zilgan to'siqlar (ChT) kabi, mahalliy to'siqlarning (MT) tavsifi asosan yo'lning sifatiga moslashtiriladi.

Uchraydigan cho'zilgan to'siqlarning qiyinlik toifasini aniqlash huddi veloturizmning kabi amalga oshiriladi. Farqi faqat yo'l qoplamasi koeffisienti (Kpk) va cho'zilganlik koeffisienti (Kpr) qiymatlarida bo'ladi.

6.6 Chang'i turizmi

Chang'i turistik marshrutining murakkablik toifasini baholash uni etalon marshrutlar ro'yxati (EMR) bilan taqqoslash yoki "Chang'i marshrutlarini toifalash metodikasi" dan foydalangan holda amalga oshiriladi. Metodika chang'i marshrutlarining murakkablik toifasini baholash uchun mo'ljallangan.

Metodikaning mohiyati marshrutning murakkablik toifasini, quyidagi uchta parametrning yig'indisi bilan aniqlanadigan, ekvivalent cho'zilganlik (ECh) deb ataladigan, adekvat qiymatga baholashdan iborat: marshrut cho'zilganligi – Ch (km); umumiy balandlik farqi – B (km) va toifalangan to'siqlarni (TT) yengib o'tishga sarflangan ish – T.

6.7 G'or turizmi

Turistik marshrutning (yurishning) murakkablik toifalarini baholash uni etalon marshrutlar ro'yxati (EMR) bilan taqqoslash yoki "G'or marshrutlarini toifalash metodikasi" dan foydalangan holda amalga oshiriladi.

G'or marshrutlarini toifalashda g'orlarning qiyinlik toifalari va ularning soni hisobga olinadi. G'orlarning butun to'plami bir yurish vaqtiga o'tilishi kerak. Istisno tariqasida, bir-biridan maqbul masofada joylashgan yetarli miqdordagi g'orlar mavjud bo'lmagan hududlar uchun "qo'shma" yurishlarni hisobiga olishga yo'l qo'yiladi.

Agar birinchi yoki ikkinchi qiyinlik toifasidagi g'or kattaroq cho'zilganlikka ega bo'lsa, bir nechta g'orlardan o'tish aynan o'sha g'ordagi bir nechta turistik marshrutlardan o'tish bilan almashtirilishi mumkin (O'zbekiston g'orlari va g'or marshrutlarining qiyinlik toifalari klassifikatori).

G'orlarning qiyinlik toifalari qiyinlikning oddiydan murakkabga o'sish tartibida 1 dan 6 gacha to'siqlarning qiyinlik toifasi (QT) bilan tasniflanadi. G'or marshrutlarini toifalashda g'orlarning qiyinlik toifalari va ularning soni hisobga olinadi (7-jadval).

Alohida hollarda, agar g'or topilgan bo'lsa va undan birinchi bor o'tish yoki allaqachon ma'lum bo'lgan g'ordagi ba'zi uchastkalardan (chuqurligi bo'yicha 50 metrdan ortiq yoki cho'zilganligi bo'yicha 500 metrdan ortiq) birinchi bor o'tish amalga oshirilgan va ushbu uchastkalarining planga olinishi taqdim etilgan bo'lsa, marshrutning qiyinlik toifasi bir pog'ona, lekin e'lon qilinganidan yuqori bo'lmagan qiyinlik toifasiga oshirilishi mumkin.

G'orning qiyinlik toifasini aniqlash uchun asosiy mezon – g'orga tashrifning davomiyligi, undagi mahalliy to'siqlar (MT) soni va ularning qiyinligidir.

G'orlarni toifalashda quyidagi parametrlar hisobga olinadi: g'orning chuqurligi; g'orning cho'zilganligi; suv mavjudligi; toshqin xavfi; tor joylar mavjudligi; g'ordagi havo va suv harorati; chuqur (100 metrdan ortiq) quduqlarning mavjudligi; labirint uchastkalarining mavjudligi; sifonlarning mavjudligi; uyumlarning mavjudligi; ilgakning texnik murakkabligi; lagerlar tashkil etish zarurati.

G'orning qiyinlik toifasi undagi eng maqbul marshrut bo'yicha ko'rib chiqiladi. Gorizontall g'orlarni toifalashda g'ordagi ma'lum bir marshrutning qiyinlik toifasi ko'rsatiladi (masalan, eng qisqa yo'l bo'ylab kirish joyidan eng uzoq nuqtaga yetib borish yoki g'orning biron bir alohida hududida ishlashda qiyinlik toifasi). G'orlarni toifalashda "O'zbekistondagi toifali g'orlar ro'yxati" dan foydalanish kerak.

O'tish paytida vertikal uchastkalarni, o'yiqlarni yengib o'tish uchun deyarli hech qanday maxsus vositalar talab qilinmaydigan g'orlar – gorizontall deb ataladi; asosiy to'siqlari tik va keskin qiyalikli yo'llar bo'lgan g'orlar – vertikal deyiladi; turli to'siqlar uchraydigan g'orlar – aralash turdagi deyiladi.

6.8 Ot turizmi

Turistik marshrutning (yurishning) murakkablik toifalarini baholash uni etalon marshrutlar ro'yxati (EMR) bilan taqqoslash yoki "Ot marshrutlarini toifalash metodikasi" dan foydalangan holda amalga oshiriladi. Metodika ot marshrutlarining murakkablik toifasini baholash uchun mo'ljallangan.

Ot sporti turistik marshrutining (yurishning) qiyinlik toifasi yengib o'tiladigan mahalliy to'siqlar (MT) majmui, zarur yuk (uskunalar va jihozlar) va turistlarni tashish usuli, marshrutning jadalligi va marshrutning umumiy cho'zilganligiga qo'yiladigan talablarga javob berishi bilan aniqlanadi. Marshrutning jadalligi marshrutdagi guruhning o'rtacha kunlik harakatlanish tezligi bilan belgilanadi va "Ot marshrutlarini toifalash metodikasi"da belgilanganiga teng yoki undan kattaroq bo'lishi kerak.

Turistik marshrutlarning (yurishlarning) murakkablik toifalariga qo'yiladigan talablar 1-jadval

| Turizm turlari va marshrutlarning tavsiflari | Yurishlarning murakkablik toifalari | | | | | |
|--|-------------------------------------|-----|------|------|------|-----|
| | I | II | III | IV | V | VI |
| Kunlarda marshrut davomiyligi (kamida) | 5 | 6 | 8 | 10 | 16 | 20 |
| Marshrutning cho'zilganligi, km (kamida) | | | | | | |
| Tog' | 70 | 90 | 110 | 130 | 160 | 160 |
| Piyoda | 100 | 120 | 160 | 200 | 250 | 300 |
| Suv | 120 | 140 | 150 | 160 | 190 | 190 |
| Velosiped | 200 | 250 | 300 | 400 | 700 | 800 |
| Avto-moto | 600 | 800 | 1000 | 1500 | 3000 | - |

Turistik marshrutlarning (yurishlarning) murakkablik darajalariga qo'yiladigan talablar 2-jadval

| Turizm turlari va marshrutlarning tavsiflari | Yurishlarning murakkablik darajasi | | |
|--|------------------------------------|----|-----|
| | I | II | III |
| Kunlarda marshrut davomiyligi (kamida) | 2 | 3 | 4 |

| | | | |
|---|----|-----|-----|
| Marshrutning cho'zilganligi, km (kamida): | | | |
| Tog' | 20 | 30 | 50 |
| Piyoda | 30 | 50 | 70 |
| Suv | 40 | 60 | 80 |
| Velosiped | 70 | 100 | 130 |

Tog' turizmida qiyinlik toifasi va dovonlarning minimal soni

3-jadval

| Marshrutning murakkablik toifasi | Toifali dovonlarning minimal soni | | | | | | |
|----------------------------------|-----------------------------------|---------------------------------|----|----|----|----|----|
| | Jami | Shu jumladan qiyinlik toifalari | | | | | |
| | | 1A | 1B | 2A | 2B | 3A | 3B |
| I | 2 | 2 | | | | | |
| II | 3 | 1 | 2 | | | | |
| III | 3 | | 1 | 2 | | | |
| IV | 4 | | 1 | 1 | 2 | | |
| V | 4 | | | 1 | 1 | 2 | |
| VI | 5 | | | | 1 | 3* | 1* |

*- VI MT dagi QT murakkabligini aniqlaydigan minimal MT to'plami quyidagilarga mos kelishi kerak: 3A – 3 dona, 3B – 1 dona yoki 3A – 1 dona, 3B – 2 dona yoki 3A – 1 dona, 3B * – 1 dona. Barcha holatlarda 2B qiyinlik toifasidagi (yoki undan yuqori) MT ham talab qilinadi.

Tog' turizmida dovonlarning qiyinligini baholash toifasiga qo'yiladigan talablar

4 jadval

| Dovonning qiyinlik toifasi | Yo'ning eng qiyin uchastkalarini tabiati | Harakatlanish texnikasi va shartlari, qo'shlar | Dovonni yengib o'tish uchun umumiy vaqt. Sug'urta nuqtalarining soni (n). Aniqlovchi uchastkaning uzunligi (l) | Kerakli maxsus jihozlar |
|----------------------------|---|--|--|--|
| 1A | Tikligi 30° gacha bo'lgan oddiy xarsang uyumi, qorli va qoyali qiyaliklar; yoriqsiz yumshoq qiyalik (15 | Harakatlanishning eng oddiy individual texnikasi; al'penshtok yoki muz bolta bilan o'zini xavfsizligini ta'minlash. Daryolar orqali o'tishda | Bir necha soat. n=0; l=0. | Har bir ishtirokchi uchun sirpanmaydigan taglikli poyabzal, al'penshtok, xavfsizlik kamarlari (ko'krak |

| | | | | |
|-----------|--|--|--|--|
| | gacha) muzliklar; qoyalar uchastkalari bo'lishi mumkin bo'lgan tik o'tli qiyaliklar; odatda yondashuvlarda izlarning mavjudligi. | yaqinlashganda, arqon bilan bog'lash talab qilinishi mumkin. Tunni o'tkazish, odatda, o'rmon yoki o'tloq zonasida bo'ladi. | | bog'lamlari) va karabinalar. Har bir guruhga 1-2 ta asosiy arqon. |
| 1B | Yengil qoyalar; o'rtacha keskinlikdagi (20 dan 45° gacha) qorli va to'kilmali qiyaliklar, ba'zi yillarda esa qiyaliklarda, odatda, qor bilan qoplangan muzli uchastkalar; yashirin yoriqlar uchastkalari bo'lgan yopiq muzliklar | Eng oddiy jamoaviy texnika: qiyaliklarning ulangan joylari va yopiq muzliklarda bir vaqtning o'zida harakatlanish. Qiyaliklarda va kechib o'tish joylarida osilgan panjaralar. Muzlik zonasi chegarasida tunni o'tkazish mumkin. | Ko'pi bilan bir kun. n= 5 gacha; l = 40-50 m gacha. | Taram-taram taglikli etiklar, alpenshtoklar yoki muz boltalari (har bir guruhga 1-2 muz boltasi kerak), har bir ishtirokchi uchun xavfsizlik tizimlari va karabinalar. Har 3-4 kishi uchun bitta asosiy arqon. Tosh va muz ilgaklari (har bir guruh uchun 3-4 ta), tosh yoki muz bolg'asi. |
| 2A | O'rtacha keskinlikdagi (20 dan 45° gacha) qoyali, qorli, muzli qiyaliklar; yopiq muzliklar va oddiy muzliklar. | Ko'proq murakkab individual va jamoaviy texnika: muqobil yoki guruhli (panjara) xavfsizlikni ta'minlash, «koshkalar» yoki pallali kesishdan foydalanish; ilgakli xavfsizlikni ta'minlash talab qilinishi mumkin. Muzlik zonasida tunni o'tkazish mumkin. | Ko'pi bilan bir kun. n=5-10; l= 80-100 m gacha (ketma-ket 2-3 arqon) | 1B QTdagi dovonlar uchun sanab o'tilganlarga qo'shimcha ravishda, har bir ishtirokchi uchun muz boltalari va «koshkalar», kerakli miqdor va assortimentdagi ilgaklar. Har 2-3 kishi uchun bittadan asosiy arqon. |
| 2B | O'rtacha murakkablikdagi tikka (45° dan yuqori) qor, muz va toshli qiyaliklar, qisqa (10-15 m gacha) devor uchastkalari bo'lishi mumkin; o'rtacha murakkablikdagi muzliklar | Texnikalarning barcha eng keng tarqalgan arsenalidan foydalanish: panjarali yoki muqobil xavfsizlikni ta'minlash, ilgaklardan foydalanish; birinchisining ko'tarilishda, ikkinchisining tushishda ryugzaksiz harakatlanishi, ryugzaklarning alohida | Kamida bir sutka N=5-20; l=200 m gacha (ketma-ket 3-5 ta arqon) | 2A QTdagi dovonlar uchun sanab o'tilganlarga qo'shimcha ravishda, arqonda tushish uchun tormozlash qurilmalari va (imkon qadar) ko'tarilish uchun qisqichlar. Yordamchi arqon, |

| | | | | |
|-----------|---|--|--|--|
| | | ko'tarilishi va tushishi; arqonda tushish («dyul'fer»). Odatda, muzlik zonasida tunni o'tkazishdan qochib bo'lmaydi. | | halqalar, arqonlarning sarflanadigan uchlari va tushish uchun ilgaklar. |
| 3A | Sezilarli uzunlikdagi tikka (45 dan 65 ° gacha) qor, muz va toshli qiyaliklar; ketma-ket 1-2 arqongacha bo'lgan devor uchastkalari; murakkab muzliklar. | Uzoq uchastkalarda harakatlanish va xavfsizlikni ta'minlashning turli usullarini qo'llash, jumladan, sun'iy tayanchlar, narvonlar, langarlar va boshqalarni qo'llash. Odatda, marshrutni dastlabki razvedka qilish va qayta ishlash kerak. Taktika ustunlik qiladi. Muz zonasida bir necha marta tunni o'tkazish muqarrar. Qo'shni tashkil qilish ko'p vaqt va kuch talab qilishi mumkin. | Ikki kungacha N=10-40; l= 200 dan 500 m gacha (ketma-ket 10 ta arqongacha) | Yuqorida sanab o'tilgan jihozlarga qo'shimcha ravishda, arqonda ko'tarilish uchun qisqichlar; kattalashtirilgan uzunlikdagi asosiy va yordamchi arqonlardan foydalanish mumkin; tushish vaqtida olib tashlanadigan narvonlar, xatcho'plar va ilgaklarni ishlatish kerak bo'lishi mumkin. |
| 3B | 3A bilan bir xil, lekin murakkab uchastkalarining katta uzunligida, ularning xilma-xilligi yoki juda murakkabligida, shu jumladan 60 ° yoki undan ortiq tikka bo'lgan devorlar. | Ko'p soatlar va hatto kunlar davomida deyarli uzluksiz o'zaro va guruhli xavfsizlikni ta'minlash zarurati; bu dovonni yengib o'tish uchun mo'ljallangan maxsus tayyorgarlik; barcha ishtirokchilar tomonidan mukammal texnik ko'nikmalar; mukammal taktika. Bir kechaga qolish uchun joylarning yetishmasligi bo'lishi mumkin, bu «o'tiradigan» yoki «muallaq» qo'shlarni tashkil qilishni talab qiladi. | Kamida ikki kun. n=30 dan ortiq; l=500 m va undan ortiq (ketma-ket 10 dan ortiq arqon) | 3A bilan bir xil. Muayyan dovonni yengib o'tish uchun maxsus tayyorlangan jihozlar kerak bo'lishi mumkin. |

Izoh:

1. 2, 3 va 4-ustunlarda keltirilgan uchastkalarining texnik murakkabligi va ularni yengib o'tish usullari faqat davonlarning mazkur qiyinlik toifasi uchun xosdir va oldingi toifalarning dovonlarini yengib o'tishda uchramaydi. Oldingi toifalarning dovonlariga xos bo'lgan murakkablikdagi har qanday cho'zilganlikdagi uchastkalar mavjud bo'lishiga yo'l qo'yiladi.

2. Xavfsizlikni ta'minlash nuqtalari – bu ko'tarilishdagi birinchi ketayotgan va tushishdagi oxirgi tushayotganning xavfsizligini ta'minlash uchun va panjaralarni osish uchun zarur bo'lgan arqonni,

muz boltasi, karabinlar bilan ilgaklar yordamida qoya qirralari, muz ustunchalariga yelkasi, beli orqali mahkamlash va qotirishdir.

3. Bevosita xavfli uchastkalarining mavjudligi (tosh tushishi, qor ko'chkisi, muz tushishi) dovonning qiyinlik toifasiga ta'sir qilmaydi, hamda o'tish taktikasida va jihozlarni tanlashda hisobga olinishi kerak.

4. Qish sharoitida yoki qiyaliklarda chuqur qor qoplami bo'lgan har qanday qiyinchilik toifasidagi dovonlardan o'tish uchun qo'shimcha ravishda har bir ishtirokchi uchun ko'chki bog'ichlari (20 m) va har 2-3 kishiga bittadan ko'chki kuraklari bo'lishi talab qilinadi.

Suv turizmida qiyinlik toifasi va aniqlovchi to'siqlarning minimal soni

5 jadval

| Marshrutning murakkablik toifasi | Aniqlovchi to'siqlarning minimal soni | | | | | | |
|----------------------------------|---------------------------------------|---------------------------------|------|------|------|------|------|
| | Jami | Shu jumladan qiyinlik toifalari | | | | | |
| | | 1 QT | 2 QT | 3 QT | 4 QT | 5 QT | 6 QT |
| I | 2 | 2 | | | | | |
| II | 3 | 1 | 2 | | | | |
| III | 3 | | 1 | 2 | | | |
| IV | 3 | | | 1 | 2 | | |
| V | 3 | | | | 1 | 2 | |
| VI | 4 | | | | | 2 | 2 |

Veloturizmdagi aniqlovchi to'siqlar

6 jadval

| Marshrutning qiyinlik toifasi | Aniqlovchi to'siqlarning minimal soni | | | | | | |
|-------------------------------|---------------------------------------|---------------------------------|------|------|------|------|------|
| | Jami | Shu jumladan qiyinlik toifalari | | | | | |
| | | 1 QT | 2 QT | 3 QT | 4 QT | 5 QT | 6 QT |
| I | 2 | 2 | | | | | |
| II | 3 | 1 | 2 | | | | |
| III | 3 | | 1 | 2 | | | |
| IV | 3 | | | 1 | 2 | | |
| V | 3 | | | | 1 | 2 | |
| VI | 4 | | | | 1 | 2 | 2 |

G'orlarning qiyinlik toifalari va ularning g'or turizmidagi soni

7 jadval

| Yurishning qiyinlik toifasi | Toifali g'orlarning soni (kamida) | | | | | | | | |
|-----------------------------|-----------------------------------|---|----|----|----|----|------|------|---|
| | Jami | 1 | 2A | 2B | 3A | 3B | 4A-B | 5A-B | 6 |
| I | 4 | 4 | - | - | - | - | - | - | - |

| | | | | | | | | | |
|-----|---|--|---|---|---|---|---|---|---|
| II | 3 | | 2 | 1 | - | - | - | - | - |
| III | 2 | | | | 1 | 1 | - | - | - |
| IV | 1 | | | | | | 1 | - | - |
| V | 1 | | | | | | | 1 | - |
| VI | 1 | | | | | | | | 1 |

Muhim soʻzlar: Turistik marshrutlarning (yurishlarning) yagona tasnifi (toifalanishi), marshrut-malaka komissiyasi, marshrutning murakkablik toifasi, toʻsiqlarning murakkablik toifasi, etalon marshrutlar.

Texnik qo'mita raisi



Sh. Sharipov


ISHLAB CHIQLDI:

Tturizmni rivojlantirish
ilmiy-tadqiqot instituti directori



Y. Golisheva

Turizmni rivojlantirish
ilmiy-tadqiqot instituti
Kasbiy rivojlantirish va baholash bo'limi
Bosh mutaxassisi



F. Boyko